O‘ZBEK TILI IZOHLI LUG‘ATLARIDA FITONIMLARNING BERILISHI

Yakubova Gulchexra Ziyatovna,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi.
Qarshi xalqaro universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi katta o‘qituvchisi
gyakubova5@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-8706-2785

Annotatsiya. Leksikografiya tilshunoslikning mustaqil bo‘limi bo‘lib, so‘z boyligini tizimli ravishda yig‘ish, tavsiflash, izohlash va lug‘at shaklida taqdim etish bilan shug‘ullanadi. U leksikani eng to‘liq va tizimli aks ettiruvchi fan sifatida tilning haqiqiy holatini saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim o‘rin tutadi. Leksikografiya nafaqat mavjud so‘zlarni ro‘yxatga olish, balki ularning semantik tuzilishi, ishlatilish doirasi, stilistik xususiyatlari va tarixiy rivojlanishini ilmiy asosda tavsiflash vazifasini bajaradi. Zamonaviy leksikografiya tilning normativ, deskriptiv va ensiklopedik vazifalarini birlashtirib, jamiyatning til madaniyati darajasini belgilashga xizmat qiladi. Lug‘atlar orqali tilning so‘z boyligi standartlashtiriladi, imlo va talaffuz me’yorlari mustahkamlanadi, yangi so‘zlar va ma’nolar qayd etiladi.

Kalit so‘zlar. Leksikografiya, empirik baza, dialektlar, jargonlar, so‘z birikmalari, rasmiy uslub, ilmiy uslub, eman, illyustrativ misollar, pometa.

Abstract. Lexicography is an independent branch of linguistics concerned with the systematic collection, description, interpretation, and presentation of vocabulary in the form of a dictionary. As the science that most fully and systematically reflects vocabulary, it plays an important role in preserving the true state of the language and passing it on to future generations. Lexicography serves not only to register existing words but also to provide a scientifically grounded description of their semantic structure, scope of usage, stylistic features, and historical development. Modern lexicography serves to determine the level of a society's linguistic culture by combining the normative, descriptive, and encyclopedic functions of language. Through dictionaries, the vocabulary of the language is standardized, spelling and pronunciation norms are strengthened, and new words and meanings are recorded.

Keywords. Lexicography, empirical base, dialects, slang, phrases, formal style, scientific style, oak, illustrative examples, pometa.

Kirish.

Tilshunoslikning leksikografiya sohasida amalga oshirilgan muhim ishlar lug‘atlarda o‘z aksini topadi. Chunki tilning butun leksikasi – turli uslublarga xos so‘z va iboralar, atamalar, chegaralangan (masalan, dialektlar yoki jargonlar) va chegaralanmagan (umumiy qo‘llaniladigan) qatlam so‘zlari lug‘atlarda jamlanadi. Jamiyat va xalq hayotidagi barcha sohalarda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, shubhasiz, tilning leksikasida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy yoki madaniy sohalardagi yangiliklar yangi so‘zlar, terminlar va iboralar shaklida tilga kirib keladi va ular lug‘atlarda qayd etiladi. Lug‘atlar xalqlarning madaniyati va tarixida muhim o‘rin tutadi, chunki ular nafaqat tilning so‘z boyligini saqlab qoladi, balki xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi va qadimiy an’analarini ham aks ettiradi. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida keltirilgan fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarning xususiyatlarini o‘rganish o‘zlashma qatlam so‘zlarni aniqlashtirish va ularning tilimizdagi o‘rnini tahlil qilish imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat o‘zbek tilining leksik boyligini chuqur tushunishga yordam beradi, balki tilning boshqa tillar bilan aloqasi va o‘zaro ta’sirini

ham yoritadi. Muayyan leksik-semantik guruh so‘zlarining lug‘atlarda berilishini tekshirish ular ma’nolarining yanada aniqlashishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Butun XX asr davomida o‘zbek leksikasida ro‘y bergan o‘zgarishlar muayyan leksikografik manbada jamlanishi ijtimoiy buyurtma sifatida shakllandi. Chunki bu asrda tilimiz, leksik boyligimizda misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar qayd etildi. Rus tilining faol ta’siri, istiqloldan keyin bu maqomning ingliz tiliga o‘tishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar shular jumlasidandir. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirish mumkin: “Lug‘aviy birliklarning adabiy me’yor (norma)ga bo‘lgan munosabatida, qo‘llanishi va boshqa xususiyatlarida turlicha o‘zgarishlar yuz beradi. Ana shunday o‘zgarishlar ma’lum darajaga kelganida, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi tadqiqotlarga ehtiyoj tug‘iladi. Amaliy ishlarning asosiylaridan biri esa izohli, tarixiy va etimologik lug‘atlar tuzish hisoblanadi”[1]. Boshqacha aytganda, o‘zbek tilshunosligida to‘plangan boy empirik tajriba umumiy lug‘atlarning eng muhim bo‘lgan izohli lug‘atlarda o‘z aksini topishi lozim edi. O‘tgan asrning 80-yillariga kelib o‘zbek tilshunosligida ulkan leksikografik ish amalga oshirildi – ikki tomli izohli lug‘at dunyo yuzini ko‘rdi. Mualliflarning qayd etishicha, lug‘at o‘sha davrda “keng iste’molda bo‘lgan 60 ming so‘z va so‘z birikmalarini, fan, texnika, san’at sohalariga oid terminlarni, dialektal va eskicha so‘zlarni o‘z ichiga oladi”[2]. Ta’kidlanganidek, tilshunoslik fan sifatida shakllangan davrdan boshlab, substansial tilshunoslik ostomasiga yaqinlashgan davrgacha bo‘lgan leksik boylikni jamlagan bu lug‘at o‘z davri uchun muhim leksikografik manba sifatida qaraldi. 1981-yilgi nashr o‘zida o‘quv va qomusiy lug‘atlarning vazifalarini muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirgan noyob asardir. Ushbu lug‘at klassik leksikografiya an’analariga asoslanib, o‘zbek tilining boy leksik fondini keng qamrovda yoritadi. Lug‘at maqolalari so‘zlarning izohlari, illyustrativ misollar va ba’zi hollarda ularning grammatik xususiyatlari hamda etimologik kelib chiqishi haqida ma’lumotlardan iborat edi. Bu ma’lumotlar so‘zlarning ma’no doirasini aniq tushunishga va ularning qo‘llanilish doirasini chuqur anglashga yordam beradi. Masalan, *eman* o‘simligi uchun 1981-yilgi izohli lug‘at nashrida quyidagi lug‘at maqolasi keltirilgan:

“EMAN Yog‘ochi oqish va juda qattiq, keng yaproqli, jigarrang uzunchoq hosilali daraxt; dub. *Eman daraxtning egilgani – singani, er yigitning uyalgani – o‘lgani.* Maqol. || *Eman stol*”[3].

Natijalar va muhokama. Keltirilgan lug‘at maqolasi a) bosh so‘z; b) bosh so‘z izohi; d) izohni dalillovchi illyustrativ misol (lar); e) illyustrativ misol manbasi kabi qismlardan iborat. Qayd etish lozimki, fitonim izohi ilmiy uslubda shakllantirilgan: “yog‘ochi oqish va juda qattiq, keng yaproqli, jigarrang uzunchoq hosilali daraxt; dub”. Buni *eman* o‘simligining mamlakatimizda tabiiy holda kam o‘sishi, aholining katta qismi bu o‘simlikning tashqi ko‘rinishi haqida to‘liq tasavvurga ega emasligi bilan izohlash mumkin. Shu sababli o‘simlik haqidagi izoh batafsil, keng tarzda shakllantirilgan. Izohni dalillovchi illyustrativ misol masalasi o‘zbek xalq maqollaridan birini keltirish orqali hal etilgan. Illyustrativ misol sifatida keltirilgan maqol mazmunida ham *eman* o‘simligining xususiyatlari (tanasining qattiqligi haqidagi ma’lumot) singdirilgan. Tabiiyki, keltirilgan bu ma’lumotlar izohli lug‘atning ilk nashri lug‘atchilikning muhim tamoyillarini hisobga olgan holda tayyorlanganligini, lug‘at nashr etishda juda katta faktik materiallardan foydalanilganligini ko‘rsatadi. Garchi 1981-yilgi lug‘atda fitonimlarning terminologik ma’nosi uchun *bot.* pometasidan foydalanilgan bo‘lsa-da, aynan tahlil qilayotgan leksemamizda bu maxsus belgiga murojaat qilinmagan. Ammo izohli lug‘atlarning 1981-yilgi nashrida 297 ta shu pometa bilan ajratilgan leksema bosh so‘z maqomida keltirilgan. Bu definitsiyasi o‘zbek tilida muloqot qiluvchi barcha aholi uchun tushunarli bo‘lmagan, tor ilmiy doirada qo‘llanadigan leksemalardagina maxsus pometadan foydalanilganligini ko‘rsatadi. Qolaversa, *bot.* pometasi leksemaning botanika faniga aloqador termin ekanligini ifodalaydi xolos. Bu *bot.* pometasi faqat

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B.5.
[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 2 томлик. 1-том. – Москва: Русский язык, 1981. – 632 с.
[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 2 томлик. 2-том. – Москва: Русский язык, 1981. – 632 с.

fitonimlarnigina emas, balki o‘simliklar bilan bog‘liq jarayonlarni, ularning qismlarini ham qamrab olishini anglatadi.

Lug‘atshunoslikda izohli lug‘atlarning quyidagi turlari mavjudligi qayd etiladi.

2.1.1-jadval. Izohli lug‘atlarning turlari[4].

1	ma’lum bir davr yoki boshqa chegaralar bilan bog‘lanmagan, tildagi barcha so‘zlarni qamrab olgan tezaurus lug‘atlar;
2	2) muayyan davrda qo‘llangan leksik birliklarni qamrab olgan lug‘atlar;
3	3) chegaralangan qatlam birliklarini qamrab olgan lug‘atlar

Xulosa va takliflar. Tilning ijtimoiylik qonuni asosida o‘zlashmagan leksemalar nutqda qo‘llanmay, iste’moldan chiqib keta boshladi. Natijada izohli lug‘atlarning yangi nashriga ehtiyoj paydo bo‘la boshladi. Ammo izohli lug‘atlarni yaratish ulkan lingvistik mehnatni, chuqur izlanishni, pirovardida, juda katta vaqtni talab etar edi. Shu sababli bir muddat soha mutaxassislari va keng kitobxonlar ommasiga xizmat qiluvchi leksikografik manba yaratildi. “O‘zbek tiliga mustaqillik sharoitida kirib kelgan so‘zlarning ma’nosini bilishga aholi o‘rtasida qiziqish katta”[5] ekanligi o‘zbek tilida faol qo‘llanayotgan so‘zlarning izohli lug‘atini yaratish uchun asos vazifasini bajardi. 2001-yilda nashr etilgan “Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati” keyingi avlod izohli lug‘atlari nashr etilgunga qadar o‘ziga xos “o‘t o‘chiruvchi” vazifasini bajardi. Shunisi e’tiborliki, mazkur lug‘atda asrimiz boshida o‘zbek tilida faol bo‘lgan leksemalargina kiritilgan edi. So‘zlarni tanlab olishda ularning XX asr boshidagi o‘zbekcha matnlarda faol qo‘llanishi asos sifatida qaraldi. O‘zbek tilidagi matnlarda qo‘llangan 1 mln. 600 mingdan ortiq so‘zdan 15 mingdan ortig‘i “Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati”ga kiritildi. Lug‘at mualliflari leksikografik manbaning nafaqat o‘zbek tilida muloqot qiluvchilar, balki xorijliklar uchun ham foydali ekanligini ta’kidlaydilar. Darhaqiqat, faol so‘zlarni jamlovchi lug‘atlar til o‘rganish jarayonini karrasiga osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B.5.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 2 томлик. 1-том. – Москва: Русский язык, 1981. – 632 с.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 2 томлик. 2-том. – Москва: Русский язык, 1981. – 632 с.
4. Hojiyev A. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq NMAK, 2001. – B.3.
5. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка. – Москва: Мир и Образование, 2019. – 1376 с.
6. Муҳамедов С. Ўзбек тилининг алфавитли-частотали луғати. – Тошкент: Фан, 1982. – 111 с.
7. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка. В 4-х томах. – Санкт-Петербург: Издание книгопродавца-типографа М.О.Вольфа, 1863-1866. – 816 с.
8. Дорофеев В.И. и другие. Ботанический иллюстрированный словарь. – Санкт-Петербург: СпецЛит, 2019. – 382 с.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildli, 5-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – 780 b.
10. Hojiyev A. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq NMAK, 2001. – 336 b.

[4] Hojiyev A. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq NMAK, 2001. – B.3.
[5] Ko‘rsatilgan manba. – B.3.